

## **ISLOM HUQUQIDA FAROIZ ILMI MANBALARI VA TADQIQOTLAR**

*Shaxnoz Axmedova Ganidjanovna  
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik  
akademiyasi magistri*

**Annotatsiya:** Maqolada faroiz ilmining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari, Qur’on va Sunnatdagi asoslari hamda sahobalar davridan zamonaviy tadqiqotlarga bo‘lgan rivojlanish jarayoni yoritilgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari tahlil qilinib, faroiz ilmining huquqiy va ijtimoiy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot ushbu ilmning tarixiy ildizlari va bugungi davrdagi dolzarbligini asoslaydi.

**KIRISH:** “Faroiz lug‘atda - meros qoldirish, meros olish degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni biror narsani bir shaxsdan boshqa shaxsga ko‘chib o‘tishidir yoki bir qavmdan boshqa bir qavmga o‘tishidir. Ana o’sha narsa xoh ilm bo‘lsin, mol yoki obro‘-sharaf bo‘lsin barobardir. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflarida kelganidek: “Ulamolar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir”. Shunga ko‘ra ilmni bir ulamolardan boshqa bir ulamolarga ko‘chib o‘tishi nazarda tutilyapti. Bu ta’rifga qurondan quyidagi oyatni keltiradilar: “Sulaymon (payg‘ambarlik va ilmda) Dovudga voris bo‘ldi”<sup>1</sup>. Ya’ni Dovud alayhissalomning ilmlari sulaymon alayhissalomga ko‘chib o‘tdi va ularning ilmi va nabiyligiga voris bo‘ldi. Istilohiy ma’nosiga kelsak, o‘lim sababidan bir kishining mol-mulki shar’iy merosxo‘rlarga ko‘chib o‘tishidir. Tarika - vafot etgan shaxsning oz bo‘lsin, ko‘p bo‘lsin qoldirgan mol-mulk va huquqlari tushuniladi. Endi meros ilmi ta’rifiga kelsak, mayyitning mulki tirik merosxo‘rlarga o‘tishidir<sup>2</sup>. Meros ilmi bu – tarikaga haqli bo‘lgan har bir shaxsning ulushini aniqlab beradigan qoidalar to‘plamidir<sup>3</sup>. Meros - bu vafot etgan odamdan qolgan narsa<sup>4</sup>.

Faroiz ilmi islom huquqining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u musulmon jamiyatining huquqiy hayotida beqiyos o‘rin tutadi. Ushbu ilm Qur’oni karim va hadislар asosida shakllangan bo‘lib, uning qoidalari bevosita Alloh taolo tomonidan belgilangan. Qur’onning “Niso” surasida meros taqsimoti haqida aniq ko‘rsatmalar berilishi, uni islomiy huquqning eng mukammal va qat’iy tartibga solingan sohasi sifatida ajratib turadi. Payg‘ambar alayhissalom esa hadislarida faroiz ilmiga alohida

<sup>1</sup> Naml surasi, 16-oyat. Qur’on Karim ma’nolarining o‘zbekcha tarjimasি. Alouddin Mansur. O‘zbekcha tarjima, mutarjim: Alouddin Mansur - Qur’oni Karim qomusi 2017-03-25 - V1.0.0.

<sup>2</sup> Tavzihu al-faroizi as-sirojiyya fi tashili as-sirojiyyi al-mirosi. Muhammad ibn Mahmud as-Sajovandiy. – Pokiston. Maktabatu Zamzam, 1419-hijriy. – B. 8.

<sup>3</sup> Muhammad Bakr Ismoiliy. Al-fiqh al-vazih min al-kitabi vas-sunnati ala al-mazhabi al-arba’ati. 3-juz. – Al-Qohira. Dar al-minar, 1997. – B. 140.

<sup>4</sup> Hanafiy fiqhidan zarur masalalar. [Matn] / M. Komilaov, A. Miravaz o‘g‘li. – T.: Shamsuddinxon Boboxonov, 2023. – B. 118.

e'tibor qaratib, “*Faroiz ilmiga o'rganinglar, u ilmnинг yarmidir*” deya musulmonlarni ushbu sohaga qiziqtirganlar. Bu esa faroizning nafaqat huquqiy, balki diniy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Faroiz ilmining asoslari bevosita Qur'oni karimda belgilab qo'yilgan bo'lib, meros masalalariga oid hukmlar “Niso” surasining 11, 12 va 176-oyatlarida batafsil bayon etilgan. Ushbu oyatlар har bir merosxo'rning ulushini aniq belgilab, musulmon huquqida qat'iy tartib o'rnatgan. Bugungi kungacha meros ilmlarini o'rganish bo'yicha Sharq, G'arb va O'zbek olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Meros ilmi hukmlarining aksariyati Qur'oni karimda tafsilotlari bilan bayon qilingandir. Xususan “Niso” surasining 11-12 oyatlari va 176-oyatlarida merosdan oladigan ulushlar va ulush egalari batafsil yoritilgandir. Shu sababdan Mavorounnahr olimlaridan mufassirlarning deyarli barchasi o'z asarlarida, mazkur oyatlар tafsirida bevosita meros ilmiga kirishganlar va ushbu ilmga tegishli hukmlarni sharhlaganlar. Jumladan Samarqandiy ham o'zlarining “Bahrul ulum” deb nomlangan tafsir kitoblarida “Niso” surasidagi meros oyatlara atroflicha to'xtalib o'tganlar. Zamakhshariyning “Kashshof” tafsirlari<sup>5</sup>, Nasafiyning<sup>6</sup> “Madorik at-tanzil”<sup>7</sup>, Muhammad ibn Jarir Tabariyning “Jome al-bayon fi ta'vil oy al-Qur'on”, Abu Muhammad Hasan ibn Mas'ud Bag'aviyning “Ma'alim at-tanzil”, Faxriddin Roziyning “Mafatih al-g'oyb”, Abdulloh ibn Umar Bayzoviyning “Anvar at-tanzil va asror at-ta'vil”<sup>8</sup> asarlarida ham meros hukmlarini uslubiy va qiyosiy yondashuvlar asosida izohlagan.

G'arb olimlari orasida meros huquqiga oid tadqiqotlar keng tarqalgan. Masalan, Coulson, N.J. Succession in the Muslim Family Law asarida islom meros huquqining asosiy tamoyillari, uning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy qo'llanilishi haqida keng ma'lumot berilgan. Powers, D.S. Studies in Qur'anic Law and Society asarida Qur'ondagi meros hukmlarining ijtimoiy kontekstdagi tahlili o'tkazilgan. Hallaq, W. B. Sharia: Theory, Practice, Transformations<sup>9</sup> asarida shariatning nazariy va amaliy jihatlari, jumladan, meros taqsimoti tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. G'arb

---

<sup>5</sup> Jarulloh Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar Zamakhshariy. Al-Kashshof an haqa'iq at-tanzil va uyun al-aqovil fi vujuh at-ta'vil. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2009. – J. I. – 960 b. *al-Kashshāf 'an haqā'iq al-tanzīl : Zamakhsharī, Mahmūd ibn 'Umar, 1075-1144, author : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive*

<sup>6</sup> Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy

<sup>7</sup> Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy. Madorik at-tanzil va haqoq at-ta'vil. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2010. – J. I. – 880 b.

<sup>8</sup> Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy. Jome' al-bayon an ta'vil oy al-Qur'on. – Qohira: Dor al-hadis, 2010. – J. I. – 930 b; Abu Lays Samarqandiy. Bahr al-ulum. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2003. – J. I. – 850 b; Abu Muhammad Hasan ibn Mas'ud Bag'aviy. Ma'alim at-tanzil. – Qohira: Maktabat al-safa, 2005. – J. I. – 912 b; Faxriddin Roziy. Mafatih al-g'oyb. – Bayrut: Dar al-fikr, 2004. – J. I. – 1200 b; Abdulloh ibn Umar Bayzoviy. Anvar at-tanzil va asror at-ta'vil. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2005. – J. I. – 832 b.

<sup>9</sup> Coulson, N.J. Succession in the Muslim Family Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 1971. – 234 p; Powers, D.S. Studies in Qur'anic Law and Society. – Qohira: The American University in Cairo Press, 2013. – 368 p; Hallaq, W. B. Sharia: Theory, Practice, Transformations. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 621 p.

islomshunos olimlaridan R.Sharl<sup>10</sup>, Y.Shaxt<sup>11</sup>, B.Xallaq<sup>12</sup>, A.Masse<sup>13</sup> kabilar ham shular jumlasidan.

Turkiyada ham meros huquqi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Albayrak, I. Islami Miras Hukuku ve Modern Yorumlar asarida islom meros huquqining zamonaviy talqinlari va meros taqsimotidagi huquqiy muammolar keng yoritilgan. Akgündüz, A. Osmanlı'da Hukuk ve Miras Sistemi asarida Usmonli davrida meros taqsimoti tizimi va huquqiy asoslar batafsil bayon etilgan. Aydin, M. İslam Hukukunda Miras Paylaşımı ve Problemleri<sup>14</sup> asarida meros taqsimotidagi zamonaviy muammolar va ularning huquqiy yechimlari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, Turkiyalik tadqiqotchilardan olim Alpaslan Alkish, Yazichi Abdurahmonlarni<sup>15</sup> ham keltirish mumkin.

Sharqda islom huquqining ushbu qismi qadimdan o'rganib kelingan. Bu borada dastlab Abu Abdulloh Sufyon Savriy, keyinchalik Abu Ja'far Tahoviy, Yusuf al-Qurtubiy, Abu Nasr al-Marvaziy va shu kabi bir qator olimlar ushbu mavzu yuzasidan alohida ilmiy izlanishlarni olib borgan. Bularidan tashqari, mashhur faqihlardan Burhoniddin al-Marghinoniy, Shamsul-aimma Saraxsiy, Abu Bakr Kosoniy, Imom al-Buxoriy, Tumurtoshiy-Xorazmiy, Abul Barakat Nasafiyalar bilan bir qatorda, buyuk matematik va qomusiy olimlardan Muhammad al-Xorazmiy, diniy va dunyoviy ilmlar bilimdoni Sayyid Sharif Jurjoniy va Abdurashid Sajovandiy<sup>16</sup> kabi ko'plab olimlar bu mavzuga oid asarlar yozgan.

Albatta, yurtimiz ulamolari tomonidan mazkur fanga oid yozilgan mustaqil asarlar, ya'ni Kitobul faroiz turkumiga kiruvchi kitoblar ham mavjud bo'lib, ulardan Abu Nasr al-Marvaziyning Faroiz, Zahiriddin Ahmad ibn Ismoil Temirtoshiy Xorazmiy Hanafiyuning (vaf. 744/1344 y.) Faroiz at-Temirtoshiy, Burhonuddin Abul Hasan Aliy ibn Abul Hasan Aliy ibn Abu Bakr Marg'inoniyning ("Al-Hidoya"ning

---

<sup>10</sup> R.Sharl (R. Charles). La Transmission du Patrimoine. Presses Universitaires de France. – 1991. [Amazon.com: La transmission du patrimoine \(Collection L'Actualité juridique\) \(French Edition\)](#): 9782281121315: Deuré, Paul Louis: Books

<sup>11</sup> Y.Shaxt (Y. Shaxt). Méreréti et Héritage: Une Approche Historique. Editions du Seuil. – 1985. [Les météorites : une approche historique | France Culture](#)

<sup>12</sup> B.Xallaq (B. Khallaq). Le Patrimoine comme Héritage Social. Editions de la Découverte. – 1997. [Le Patrimoine comme Héritage Social — Яндекс: нашлось 72 тыс. результатов](#)

<sup>13</sup> A.Masse (A. Masse). L'Héritage et ses Significations Psychologiques. Presses Universitaires de France. – 2000. [L'espace et ses trajets psychologiques](#)

<sup>14</sup> Albayrak, I. Islami Miras Hukuku ve Modern Yorumlar. – Istanbul: Istanbul Universitesi, 2015. – 312 s; Akgündüz, A. Osmanlı'da Hukuk ve Miras Sistemi. – Istanbul: Istanbul Universitesi, 2011. – 276 s; Aydin, M. İslam Hukukunda Miras Paylaşımı ve Problemleri. – Ankara: Ankara Universitesi, 2017. – 347 s.

<sup>15</sup> Aydin, M. İslam Hukukunda Miras Paylaşımı ve Problemleri. – Ankara: Ankara Universitesi, 2017. – 347 s; Alpaslan Alkish. İslam'da Miras Hukuku ve Modern Yaklaşımalar. – Istanbul: Marmara Universitesi, 2018. – 298 s; Yazichi Abdurahmon. İslam ve Miras Hukuku Üzerine Araştırmalar. – Istanbul: Istanbul Universitesi, 2016. – 314 s.

<sup>16</sup> Sufyon Savriy. Al-Faroiz. - Riyoz: Dor al-osima, 2016; Tahoviy. Al-Faroiz. - Bayrut: Dor ar-roid al-arabiy, 1970; Shamsuddin Saraxsiy. Mabsut. - Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1978; Alauddin Kosoniy. Badoi' as-sano'i - Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2000; Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. J. 1. - Toshkent, Dehli: Maktaba al-ashrafiya, 2003; Sajovandiy. As-Sajovandiy. - 1983; Sayyid Sharif Jurjoniy. Ash-Sharifiya; Sirojiya. - Bayrut: Dor as-sadr, 1972.

sohibi) (vaf. 593/1196 y.) Faroiz al-Usmoniy, Molikiy mazhabida esa Aj’ad Molikiyning Faroiz ul-Ja’diya ala al-mazhab al-Molikiya va Ahmad Ishbiliyning Faroiz ul-Hufiy<sup>17</sup> kitoblari mashhurdir<sup>18</sup>.

O’zbekistonda mustaqillikdan so‘ng bu borada bir qancha tadqiqotlar amalgalashirilgan bo‘lib, ularning aksariyati tarjimaga asoslangan. Ular qatorida Sirojiddin Muhammad ibn Mahmud ibn Abdurrashid Sajovandiyning “Sirojiya” nomi bilan tanilgan “Faroiz as-Sirojiya” kitobidir. Mazkur ilm borasida zamonamizdagi tadqiqotchi va olimlar ham ilmiy ishlar olib bormoqdalar. O’zbekistonda bu borada eng avvalo Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomini tilga olish lozim. U kishi mustaqillik yillarda faroiz ilmini keng jamoatchilikka o’zbek tilida yetkazgan ilk yirik olimlardan biridir. Uning asarlarida merosga oid Qur’on oyatlari va hadislar asosida yaratilgan qoidalar sodda, ravon va ilmiy tahlillar bilan tushuntirilgan. Ayniqsa, “Meros ilmi” asarida faroiz qoidalari batafsil yoritilgan. Shayxning bu yo‘nalishdagi faoliyati nafaqat diniy-ma’rifiy, balki huquqiy amaliyot uchun ham muhim qo’llanma vazifasini o’taydi. Xususan, bu yo‘nalishdagi mahalliy tadqiqotchilarga islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori Saidjamol Masaitov , PhD.Buzaxro Begmatova va boshqalarni misol tarzida keltirish mumkinZamonaviy davrda faroiz ilmiga oid tadqiqotlar yangi bosqichga ko‘tarildi.A. Abdug‘afurov, Sh. Mirzayev, M. Rashidov singari olimlar ham ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borib, tarixiy manbalarni o‘rganish va ularni bugungi huquqiy amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilganlar. Xorijiy tadqiqotchilar orasida N. Coulson, J. Schacht, B. Weiss, M. Kamali kabi olimlarning asarlarida islom huquqi va meros masalalari tahlil qilingan. Ular islom huquqi tarixidagi umumiy yo‘nalishlarni yoritib, faroizning musulmon jamiyatlaridagi ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilganlar. Bunday tadqiqotlar faroiz ilmiga qiyosiy yondashuv imkonini beradi va mahalliy manbalarni kengroq talqin qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, faroiz ilmi islom huquqining eng muhim va mukammal tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning asoslari bevosita Qur’on oyatlari va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarida belgilangan. Sahobalar davrida ushbu ilmlar hayotga tatbiq etilib, keyinchalik tobe’in va fiqh ulamolari tomonidan mukammal tizimga solingan. Mavorounnahr olimlari hamda musulmon Sharqi va G‘arbidagi yirik faqih va mufassirlar faroizga oid keng qamrovli asarlar yaratib, uning nazariy hamda amaliy asoslarini mustahkamlashgan. Mustaqillik yillarda esa yurtimiz olimlari

<sup>17</sup> Abu Nasr al-Marvaziy. Faroiz. – Bag‘dod: Dar al-Kutub al-Islomiyya, 2002. – 1000 b; Zahiriddin Ahmad ibn Ismoil Temirtoshiy Xorazmiy Hanafiy. Faroiz at-Temirtoshiy. – Qohira: Maktabat al-Ma’arif, 2008. – 450 b; Burhonuddin Abul Hasan Aliy ibn Abul Hasan Aliy ibn Abu Bakr Marg‘inoniy. Faroiz al-Usmoniy. – Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2007. – 560 b; Aj’ad Molikiy. Faroiz ul-Ja’diya ala al-mazhab al-molikiya. – Rabot: Dar al-Kutub al-Molikiya, 2010. – 380 b; Ahmad Ishbiliy. Faroiz ul-Hufiy. – Tunis: Maktabat al-Ulum, 2015. – 340 b.

<sup>18</sup> Islom. Ensiklopediya: A-H / Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida. – T.: “O’zbekiston milliy ensilopediysi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 506.

томонидан ушбу илм о‘збек тилида кeng jamoatchilikka yetkazilib, xalqaro miqyosda ham yangi tadqiqotlar bilan boyib bormoqda. Demak, faroiz ilmi nafaqat o‘tmishda, balki bugungi kunda ham musulmon jamiyatining huquqiy va ijtimoiy hayotida dolzarb ahamiyat kasb etadigan ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. As-Samarqandiy, Abu Lays. Bahr ul-‘Ulum. – Samarqand: qo‘lyozma nusxa, 540 b.
2. Az-Zamaxshariy, Mahmud ibn Umar. Al-Kashshof ‘an Haqoiq at-Tanzil. – Qohira: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1966, 1560 b.
3. An-Nasafiy, Abu Hafs Najmuddin. Madorik at-Tanzil va Haqoiq at-Ta’vil. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, 1998, 980 b.
4. At-Tabariy, Muhammad ibn Jarir. Jami‘ al-Bayan fi Tafsir al-Qur’an. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1984, 13200 b.
5. Ar-Roziy, Fakhruddin. Mafatih al-G‘ayb. – Bayrut: Dar Ihyo at-Turoth al-‘Arabiyy, 1990, 11500 b.
6. Al-Bayzoviy, Abdullah ibn Umar. Anvar at-Tanzil va Asror at-Ta’vil. – Istanbul: Matbaa al-Amira, 1887, 720 b.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Meros ilmi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2010, 368 b.
8. Abdug‘afurov, A. Islom huquqida meros masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2001, 214 b.
9. Coulson, N. J. A History of Islamic Law. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1964, 274 b.
10. Kamali, M. H. Shari‘ah Law: An Introduction. – Oxford: Oneworld Publications, 2008, 340 b.